



# TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G'oyalar



## DAVLAT XARIDLARI TIZIMI JOZIBADORLIGINI OSHIRISH ZARURIYATI

Norqulov Farrux Rustam o‘g‘li

70410401 – Davlat moliyasi va xalqaro moliya (sirtqi)  
magistratura mutaxassisligi tinglovchisi

**Annotatsiya.** Mazkur tezisda davlat xaridlari tizimi jozibadorligini oshirish bo‘yicha mayjud muammolar, ishtirokchilar uchun qulay sharoitlar yaratish, korrupsiya omillarini kamaytirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish yo‘nalishlari tahlil qilinadi. Tizimga ko‘proq yetkazib beruvchilarni jalg qilish, raqobat muhitini kuchaytirish va samarali ishtirokni rag‘batlantirish uchun taklif etilayotgan mexanizmlar yoritiladi. Shuningdek, O‘zbekiston amaliyotidagi holatlar xalqaro tajriba bilan qiyoslab baholanadi.

**Kalit so‘zlar:** davlat xaridlari, jozibadorlik, ishtirokchilar, tender, raqobat.

### KIRISH

Bugungi kunda davlat xaridlari tizimi mamlakat iqtisodiy hayotida strategik ahamiyat kasb etib, byudjet mablag‘laridan samarali foydalanish, davlat tashkilotlari ehtiyojini qondirish va tadbirdorlik subyektlarini iqtisodiy jarayonga jalg etishning asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Ammo amaliyotda davlat xaridlari ishtirok etuvchi subyektlar soni yetarli emas, ayniqsa kichik va o‘rta biznes vakillari ushbu bozorda kam faol bo‘lib, bu tizimning to‘liq ishlashiga to‘sinqilik qilmoqda. Demak, davlat xaridlari tizimining iqtisodiy jozibadorligini oshirish, ishonch muhitini kuchaytirish, qulay me’yoriy va texnik sharoitlar yaratish dolzarb masalaga aylangan.

### ASOSIY QISM

Davlat xaridlari tizimining jozibadorligini ta’minalash uchun eng avvalo ishonchli va shaffof tizim yaratish talab etiladi. Potensial yetkazib beruvchilar uchun eng katta to‘sirlardan biri — bu tanlovlardan natijasining oldindan belgilanganligi haqidagi xavotir, ya’ni korrupsiya va manfaatlar to‘qnashuvi ehtimoli. Elektron platformalar bu xavfni kamaytirishga xizmat qilsa-da, inson omiliga bog‘liq noaniqliklar hali hamon mavjud. Shu sababli, xarid jarayonlarida avtomatlashtirilgan baholash algoritmlarini keng joriy qilish, har bir qarorning izohli asosini ochiq holda taqdim etish, noroziliklar bo‘yicha tezkor ko‘rib chiqish mexanizmlarini yaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, biznes uchun qulay tartiblar va shartlarni shakllantirish jozibadorlikni oshirishning asosiy omillaridan biridir. Amaldagi tender hujjatlarida talablar ko‘pincha haddan tashqari murakkab yoki noaniq bo‘lib, kichik biznes subyektlari uchun bu jarayonda ishtirok etish mushkullashadi. Shu bois, xarid hujjatlarini standartlashtirish, ularni sodda, tushunarli va moslashuvchan shaklda ishlab chiqish zarur. Misol uchun, oddiy tovarlar xaridi uchun soddalashtirilgan shakldagi e’tiroz bildirish tartibi, arzonlashtirilgan ishtirok badallari va kafolat talablari tatbiq etilishi lozim. Bu esa ishtirokchilar sonining oshishiga xizmat qiladi.





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



Yana bir muhim jihat — bu axborotning ochiqligi va samarali targ‘ibot ishlaridir. Ko‘plab kichik tadbirkorlar davlat xaridlari tizimida qanday ishtirok etish mumkinligini, hujjatlarni qanday topshirish, qayerda ro‘yxatdan o‘tish, qanday huquqlarga ega ekani haqida yetarlicha ma’lumotga ega emas. Shu bois, elektron platformalarda foydalanuvchilar uchun qulay videoqo‘llanmalar, onlayn treninglar, vebinarlar tashkil etilishi zarur. Bundan tashqari, mahalliy hokimiyatlar va savdo-sanoat palatalari tomonidan tadbirkorlar uchun tushuntirish ishlari muntazam olib borilishi kerak.

Bundan tashqari, davlat xaridlarning jozibadorligini oshirish uchun raqobatga asoslangan baholash tizimlarini takomillashtirish zarur. Ayni paytda eng past narxni tanlash mezonini ko‘plab hollarda sifatsiz mahsulot yoki xizmatlar bilan yakunlanadi. Shu sababli, baholashda faqat narx emas, balki yetkazib berish muddati, sifat kafolati, xizmatdan keyingi texnik qo‘llab-quvvatlash kabi mezonlar ham hisobga olinishi lozim. Bu esa sifatli mahsulot ishlab chiqaruvchi, xizmat ko‘rsatish madaniyatiga ega bo‘lgan tadbirkorlarni tizimga jalb qilishga xizmat qiladi.

Shuningdek, mintaqaviy va sektorlararo tenglikni ta’minlash ham muhim hisoblanadi. Yirik kompaniyalar va poytaxtda joylashgan subyektlar tenderlarda ustunlikka ega bo‘lmoqda, bu esa hududlardagi kichik ishlab chiqaruvchilar uchun teng raqobat sharoitini buzmoqda. Shu sababli, hududiy kvotalar, mintaqaviy ko‘rsatkichlar asosida tahlil, davlat xaridlari mahalliy ishlab chiqaruvchilarni jalb etish bo‘yicha alohida dasturlar ishlab chiqilishi zarur.

Davlat xaridlari tizimi jozibadorligini oshirishda yana bir muhim yo‘nalish – bu moliya va hisob-kitob mexanizmlarining soddalashtirilgan va kafolatli shaklga keltirilishidir. Amaldagi tizimda ko‘plab ishtirokchilar, ayniqsa kichik biznes vakillari, o‘z xizmatlari yoki mahsulotlari uchun to‘lovni uzoq kutishlari, shartnomaga ijrosi muddati kechikishi yoki byudjet tashkilotlarining moliyaviy tartibda cheklanishi bilan duch kelishadi. Bu holat tadbirkorlar ishtirokida bevosita xavf uyg‘otadi, likvidlik muammolariga olib keladi va xaridlar bozoridagi ishtirokchilar sonini kamaytiradi. Shu bois, davlat xaridlari doirasida kafolatlangan to‘lov mexanizmlari – masalan, davlat kafilligi, qisqa muddatli to‘lov majburiyati, oldindan to‘lov imkoniyati yoki elektron akreditiv tizimlarining joriy etilishi tadbirkorlik subyektlari uchun barqaror moliyaviy asos yaratadi. Natijada, ular o‘z mahsulot va xizmatlarini erkin taklif etish, jiddiy resurs bilan ishtirok etish va zarur investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Yana bir dolzarb masala bu — xaridlarni rejalashtirish bosqichining ochiq va ishtirokchilarga oldindan ma’lum bo‘lishidir. Hozirda ko‘plab davlat tashkilotlari xarid qilish niyatini faqat tender e’lon qilinishi vaqtida bildirishadi, bu esa yetkazib beruvchilar uchun tayyorgarlik ko‘rish muddatini keskin qisqartiradi. Aslida esa, xalqaro amaliyotda xaridlar yillik yoki choraklik reja asosida shakllantirilib, ular maxsus ochiq reestrlarda oldindan joylashtiriladi. Bu yondashuv ishtirokchilarga moliyaviy, texnik va logistika jihatdan puxta tayyorlanish, mahsulot hajmi va yetkazib berish muddatini oldindan rejalashtirish, zarur sertifikatlar va hujjatlarni olish uchun imkon yaratadi. O‘zbekistonda





## **TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR**



ham xaridlar rejasini muqarrar va oshkora shaklda e’lon qilish amaliyotini kuchaytirish, har bir davlat tashkiloti uchun rejalshtirish madaniyatini majburiy tartibda joriy etish zarur.

### **XULOSA VA MUNOZARA**

Davlat xaridlari tizimi samarador va ochiq bo‘lishi bilan birga, u ishtirokchilar uchun iqtisodiy jihatdan jozibador bo‘lishi ham kerak. Buning uchun korrupsiyaga qarshi kurashni kuchaytirish, shaffoflikni oshirish, texnik va huquqiy to‘siqlarni kamaytirish, biznesga do‘stona tartiblarni joriy etish va ishonchli baholash mexanizmlarini yaratish muhimdir. Xususan, tadbirkorlik subyektlarining faol ishtirokini rag‘batlantirish, ularni o‘qitish va zarur infratuzilma bilan ta’minalash orqali davlat xaridlarining iqtisodiy samaradorligi, moliyaviy intizomi va sarmoyaviy jozibadorligi sezilarli darajada ortadi. O‘zbekistonda davlat xaridlari bo‘yicha olib borilayotgan islohotlar shu yo‘nalishda davom etsa, bu soha biznes uchun haqiqiy imkoniyat maydoniga aylanishi mumkin.

### **ADABIYOTLAR RO`YXATI**

7. O‘zbekiston Respublikasi “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonuni, 2021 yil.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori: PQ-4611-son, 2019 yil.
9. Xolboev, A. (2022). Davlat xaridlari iqtisodiyoti: nazariya va amaliyot. Toshkent: Iqtisodchi.
10. Умаров, Ш. И., Меликулова, Г. Э., Усманов, И. И., & Мирзакулов, Х. Ч. (2018). Исследование процесса переработки фосфорнокислых растворов обогащения фосконцентрата Центральных Кызылкумов. Universum: технические науки, (6 (51)), 59-62.
11. Sattorkulov, O. T., Rahmatov, K. U., & Sadikova, S. O. (2020). Инновацион мұхитни шаклланиш асослари. Молодой ученый, (9), 217-219.
12. САТТОРКУЛОВ, О., ЮСУФАЛИЕВ, О., & ТУРДИКУЛОВА, Ш. ҚИШЛОҚ ХҮЖАЛИГИ ИНФРАТУЗИЛМАСИННИ ИННОВАЦИОН РИВОЖЛАНИШ МЕХАНИЗМИ. ЎЗБЕКИСТОН АГРАР ФАНИ ХАБАРНОМАСИ, 59.
13. World Bank (2021). Enhancing Transparency and Competitiveness in Public Procurement.

